



XALQARO STANDARTLARGA ASOSAN IJARA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Djumayeva Guzal

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ORCID: 0000-0001-9371-9898

guzal_axtamovna@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalqaro standartlarni joriy etish sharoitida ijara munosabatlari, foydalanish huquqi ko'rinishidagi aktivlar, ijara majburiyatlarining yuzaga kelishi, ularning tan olinishi masalalari, boshlang'ich baholanishi, hisobda aks ettirilishi nazariy hamda amaliy korxona ma'lumotlari orqali yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ijara, ijara qiymati, ijara majburiyatlari, boshlang'ich qiymat, foydalanish huquqi ko'rinishidagi aktiv(FHKA).

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЁТА АРЕНДЫ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ

Джумаева Гузаль

Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация. В данной статье рассматриваются арендные отношения в условиях внедрения международных стандартов, а также вопросы, связанные с активами в форме права пользования, возникновением и признанием арендных обязательств, их первоначальной оценкой и отражением в бухгалтерском учёте. Теоретические и практические аспекты раскрыты на основе данных предприятий.

Ключевые слова: аренда, стоимость аренды, арендные обязательства, первоначальная стоимость, актив в форме права пользования (ППА).

IMPROVING LEASE ACCOUNTING BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS

Djumaeva Guzal

Samarkand Institute of Economics and Service

Abstract. This article discusses lease relations in the context of implementing international standards, focusing on assets in the form of the right of use, the emergence and recognition of lease liabilities, their initial measurement, and accounting treatment. Both theoretical and practical aspects are illustrated using enterprise data.

Keywords: lease, lease value, lease liabilities, initial cost, right-of-use asset (ROU asset).

Kirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijara tijorat munosabatlarining keng tarqalgan shakllaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ko'plab korxonalar o'zlarining asosiy faoliyati bilan bir qatorda asosiy bo'lmagan ijara faoliyatini ham amalga oshiradilar. Ijarachi bo'sh turgan aktivlari: binolar, inshootlar, transport vositalari, omborxonalarini ijaraga oluvchiga ma'lum haq evaziga beradi. Bunda yangidan ish boshlayotgan biznes katta moliyaviy mablag' kerakligi muammosidan xalos bo'ladi, mavsumiy ishlaydigan yoki yilning qaysidir faslida ishlatiladigan ko'chmas mulkka salmoqli mablag' sarflamasdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev 2025-yil 20-avgustda tadbirkorlar bilan ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan uchrashuvda muhim yangilikni e'lon qildi – 2026-yildan “Biznesni 15 daqiqada boshlash” tamoyili asosida tadbirkorlik faoliyatini to'laonli yo'lga qo'yish mumkinligi sharoitida ijara shartnomalarining rasmiylashtirilishini (tadbirkorning xohishiga ko'ra) ham ta'kidladilar.¹¹

Statistika ma'lumotlariga e'tibor beradigan bo'lsak ijara shartnomalari yildan-yilga oshib borayotganligini ko'ramiz. 2023-yilda soliq organlarida 531 757 ta ko'chmas mulk ijara shartnomasi, o'tgan yilga nisbatan 30,2 % ga oshgan,¹² 2024-yilda soliq organlarida 606 mingta ijara shartnomalari, 2023-yilga nisbatan 15,7 % ga oshgan.¹³

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, yuridik shaxslar o'rtasida tuzilgan shartnomalar soni, ular asosida hisoblangan soliq summasi oshib bormoqda.

Respublikamizda buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarga jadal garmonizatsiyasi sharoitida aktivlarni tan olish, baholash va hisobotlarda aks ettirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Korxonalarda ijara hisobini xalqaro standartlar talablaridan kelib chiqib tubdan yangi tartiblar asosida yuritishni taqozo etmoqda. Mavzuning dolzarbligi ham shundaki, birinchidan, hozirgi xalqaro standartlarni joriy etish sharoitida ijara va ijara munosabatlari, ularning hisobi yetarlicha o'rganilmagan; ikkinchidan, ijaraning baholanishi, hisob va hisobotlarda aks ettirilishi bo'yicha metodologiya yetishmaydi; uchinchidan, ijara, ijara bilan bog'liq majburiyatlar, hisoblanadigan foizlarni hisobotda aks ettirilishi xalqaro standart talablariga javob bermaydi; to'rtinchidan, amaldagi schotlar rejasida foydalanish huquqi ko'rinishidagi aktivlarni aks ettirish uchun schotlar ko'zda tutilmagan; beshinchidan, ijara shartnomalarida diskont smetalaridan foydalanish imkoniyatlari hozirgi kunga qadar to'liq o'rganilmagan(Tashnazarov, 2024).

Shuningdek, ijaraning baholanishi bilan bog'liq aniq me'yoriy-huquqiy asoslarda to'liq shakllantirilmagan. Xalqaro standart talablari asosida ijarani baholanishi, uning tan olinishi hamda hisobda aks ettirilishi ko'rib chiqildi.

Adabiyotlar sharhi.

Urazov va Po'latovlar (2020) tomonida yozilgan “Buxgalteriya hisobi” darsligida lizing tushunchasi, turlari, uning hisobi bo'yicha hisoblashishlar va buxgalteriya o'tkazmalari batafsil yoritilgan, lekin ijaraning boshlang'ich qiymatini aniqlash va uni baholash yoritilmagan.

Abdusalomova va Temirovlar (2021) tomonidan yozilgan “Moliyaviy hisob” o'quv qo'llanmada lizing hisobi ko'rib chiqilgan bo'lib, 6-sonli “Ijara hisobi” BHMSning o'rniga “Lizing hisobi” standarti deb ko'rsatilgan. Lizing va ijara tushunchalari bitta tushuncha sifatida qaralgan va lizing oluvchi, lizing beruvchida buxgalteriya o'tkazmalari keltirilgan. Ijarani baholash ko'rib chiqilmagan.

Yusupova va Satvaldiyevlar (2025) “Ijara bo'yicha xalqaro standart qo'llanilishining xususiyatli jihatlari” nomli maqolasida xalqaro standartlarga asosan ijaraga ta'rif, ijarada

¹¹ <https://www.gazeta.uz/oz/2025/08/20/business/>

¹² <https://t.me/fiskaltahlil/544>

¹³ <https://gov.uz/oz/soliq/news/view/35242>

identifikatsiyalangan aktivni aniqlanishi lozimligini, ijarani baholash va hisobotda aks ettirish bilan bog'liq fikrlarni keltirganlar.

Alekseyeva (2017) o'zining "Учет договора аренды в соответствии с Международными стандартами финансовой отчетности: текущее состояние и перспективы для российских организаций" nomli maqolasida ijara, uning xalqaro standartlarga ya'ni 17-BHXS (IAS) va 16-MHXS (IFRS)ga asosan turlari, tan olinishi, baholanishi hamda hisobotda aks ettirilishini nazariy jihatdan yoritib bergan.

6-son "Ijara hisobi" BHMS (2022) hamda 16-son "Ijara" MHXSga asosan ijaraning boshlang'ich qiymati tarkibini quyidagi jadvalda keltirildi:

1-jadval

BHMS va MHXSga asosan ijaraning boshlang'ich qiymati tarkibi

6-son "Ijara hisobi" BHMS	16-son "Ijara" MHXS
-Ob'yektni sotib olish xarajatlari	-Ijara bo'yicha majburiyatlarning boshlang'ich bahosi miqdoridagi summa
-Yetkazib berish xarajatlari	-Ijara boshidagi sanada yoki shu sanagacha ijara to'lovlari
-Belgilangan maqsadda foydalanish uchun yaroqli holga keltirish bilan bog'liq xarajatlar	-Har qanday boshlang'ich to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar
	-Ijarachi tomonidan ijara shartlariga muvofiq bazaviy aktivni demontaj yoki siljitishiga qilingan xarajatlar

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, foydalanish huquqi ko'rinishidagi aktivlarning boshlang'ich qiymatini xalqaro standartlarga asosan ijara bo'yicha majburiyatlarning boshlang'ich bahosi miqdorida, ijara boshidagi sanada yoki shu sanagacha ijara to'lovlari har qanday boshlang'ich to'g'ridan to'g'ri xarajatlar, ijarachi tomonidan ijara shartlariga muvofiq tayanch aktivni demontaj yoki siljitishiga qilingan xarajatlarni hisobga olgan holda buxgalteriya hisobida aks ettirilishi lozim.

16-son MHXSga asosan ijaraga oluvchi korxona ijara boshlanishida foydalanish huquqi ko'rinishidagi aktiv (FHKA)ni va ijara bo'yicha majburiyatni tan olishi lozim (Ergasheva, 2020).

Foydalanish huquqi ko'rinishidagi aktiv (FHKA) bu-ijarachining ijara muddati davomida tayanch aktivdan foydalanish huquqidan iborat bo'lgan aktiv.

Tadqiqot methodologyasi.

Ijara bilan bog'liq operatsiyalarni aks ettirilishini tadqiq qilishda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, sohaga oid ilmiy adabiyotlarni o'rganishda mantiqiy fikrlash, dalillar to'plash va muammoni qo'yish kabi nazariy-tadqiqot metodlaridan shuningdek, xo'jalik faoliyatini kuzatish va davr oralig'ida tadqiq qilish kabi empirik tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

FHKAni tan olish uchun bizning fikrimizcha bir qancha asoslar bajarilishi kerak:

Birinchidan, ijara muddati uzoq muddatli, ya'ni kamida bir yildan ortiq bo'lishi kerak;

Ikkinchidan, ijara ob'yektning qiymati salmoqli bo'lishi talab etiladi. Kichik qiymatdagi ob'yektlarni FHKA deb tan olinishi maqsadga muvofiq emas (Tashnazarov, 2023);

Uchinchidan, ob'yektning likvidatsion qiymati katta ehtimol bilan aniq baholanishi va ijarachi tomonidan to'lanishiga ishonch mavjud bo'lishi kerak.

16-son MHXSning 26-bandiga muvofiq ijara bo'yicha majburiyatlar dastavval (boshlang'ich) ijara to'lovlarinin keltirilgan qiymati bo'yicha baholanadi, qayisi ushbu sanada amalga oshirilmagan bo'ladi. Mazkur standartning 27-bandiga asosan ijara to'lovlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Fikslashgan (qat'iy) to'lov;

Likvidatsion qiymat kafolatlari bo'yicha ijarachi tomonidan to'lanishi kutilayotgan summa;

Xarid bo'yicha opsiya ijrosi bahosi, agarda ijarasi uni bajarishi bo'yicha yetarli darajada ishonch mavjud bo'lsa;

Ijarani tugatgani uchun shtraf, agarda ijara muddati uning to'lanishining potentsil ro'y berishini aks ettira olsa.

Ijara bo'yicha majburiyatlar hamda foydalanish huquqi ko'rinishidagi aktivni boshlang'ich qiymatda baholanishini hamda hisobda aks ettirilishining uslubiy masalalarini korxona amaliyotida ko'rib o'tamiz.

Naturel MChJ korxonasi 2023-yil 1-yanvarda qurilish ishlarini amalga oshirish uchun burg'ulash mashinasini ikki yilga ijaraga olish bo'yicha shartnoma tuzdi. Shartnoma ikki yildan keyin zaruriyat bo'lsa yana bir yilga uzaytirish mumkinligini ham ko'zda tutadi. Naturel MChJ katta bir ehtimol bilan bunday imkoniyatdan foydalanish mumkin deb baholaydi. Burg'ulash mashinasining xizmat qilish muddati 10 yil.

Birinci ikki yilda ijara tolovlar 120 000 000 so'm, uchinchi yil esa 150 000 000 so'mni tashkil etadi. Barcha to'lovlar yilning oxirida amalga oshiriladi. Ushbu ijarani tashkil etish uchun Naturel MChJ korxonasi 32 500 000 so'm boshlang'ich to'g'gridan-to'g'ri xarajatlarni amalga oshirgan. Shartnomaga kiritilgan foiz stavkasini aniqlashning imkoniyati yo'q. Naturel MChJ uchun qo'shimcha jalb qilingan (qarz) mablag'larining stavkasi – 14%.

Korxonaning ma'lumotlari orqali ijara majburiyatlarining boshlang'ich qiymati hamda ushbu jarayolarni Naturel MChJda buxgalteriya yozuvlarida aks ettirilishini ko'rib chiqamiz.

Ijara majburiyatlarining boshlang'ich qiymatini aniqlaymiz. Buning uchun esa quyidagi 2-jadvalni tuzamiz:

2-jadval

Ijara majburiyatlarining keltirilgan (privedennaya) qiymatini aniqlash hisob-kitobi (to'lovlar yilning oxirida amalga oshiriladi)

Sana	Pul oqimi	Diskontlash stavkasi, %	Ijara majburiyatlarining keltirilgan qiymati
2023-yil 31-dekabr	120 000 000	$\frac{1}{(1 + 0.14)}$	105 263 158
2024-yil 31-dekabr	120 000 000	$\frac{1}{(1 + 0.14)^2}$	92 336 103
2025-yil 31-dekabr	150 000 000	$\frac{1}{(1 + 0.14)^3}$	101 245 727
Ijara majburiyatlarining keltirilgan qiymati			298 844 988

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ijara majburiyatlarining boshlang'ich qiymati bilan ushbu ijarani tashkil etish, ijara ob'yektini keltirish, o'rnatish va ishlatish bilan bog'liq xarajalar qo'shiladi.

Ijara munosabatlari 16-son MHXS "Ijara" standartiga muvofiq amalga oshiriladi. 16-son MHXS standartlari talablariga asosan buxgalteriya hisobida foydalanish huquqi ko'rinishidagi aktiv va ijara majburiyatlarning keltirilgan qiymati tan olinishi talab etiladi. Ko'rsatkichlarni tan olishning tavsiya etilgan uslubiy tartibining amaliyotga qo'llanilishi MHXSlarini sifatli joriy etilishiga xizmat qiladi.

Xalqaro standartlarga asosan ijara bo'yicha majburiyatlar davomiy baholanadi. Agar ijara uchun pul to'lovlari yilning oxirida amalga oshirilsa, ijara majburiyatlarining balans qiymati hisoblangan foizlar summasiga oshiriladi, to'langan ijara to'lovlari summasiga kamaytiriladi. Buni formula orqali quyidagicha aniqlash mumkin bo'ladi:

$$IMBQ_1 = IMBQ_0 + FS - IT \quad (1)$$

Bu yerda, $IMBQ_1$ – ijara bo'yicha majburiyatlarning oxirgi balans qiymati, $IMBQ_0$ – ijara majburiyatlarining boshlang'ich balans qiymati, FS – hisoblangan foizlar summasi, IT – Ijara to'lovlari.

Hisoblangan foizlar summasi ijara majburiyatlarining boshlang'ich balans qiymatiga nisbatan diskontlash stavkalari asosida quyidagicha aniqlanadi:

$$FS = (IMBQ_0 \times DS\%) / 100\% \quad (2)$$

Yuqoridagi formulalar asosida foizlar va ijara bo'yicha majburiyatlarning oxirgi balans qiymatini quyidagi 3-jadval ko'rinishidagi shaklga joylashtiramiz. Jadvalning shakli to'lovlar yilning boshida yoki oxirida to'lanishiga qarab o'zgaradi.

Yuqoridagi amaliy misolimizdagi ma'lumotlar asosida to'lovlar hisobot yilining oxirida amalga oshirilishini hisobga olib jadvalni to'ldiramiz.

3-jadval

To'lovlar hisobot yilining oxirida amalga oshirilishini hisobga olib foizlar va ijara majburiyatlarining balans qiymatlari hisob-kitobi

Davr	Ijara majburiyatlarining hisobot davri boshidagi balans qiymati	Foizlar, 14%	To'lovlar	Ijara majburiyatlarining hisobot davri oxiridagi balans qiymati
2023- yil	298 844 988	41 838 298	120 000 000	220 683 286
2024- yil	220 683 286	30 895 660	120 000 000	131 578 946
2025- yil	131 578 946	18 421 054	150 000 000	0
Jami		91 155 012	390 000 000	

Ushbu jadval asosida ma'lumotlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish uchun quyidagi buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi. Yuqoridagi yozuvlar asosida 7910 "Uzoq muddatli ijara majburiyatlari" schotining kreditida 298 844 988 so'm shakllangan edi. Bu summa ijara bo'yicha majburiyatlarning boshlang'ich balans summasi hisoblanadi.

2023-yil 31-dekabrida hisoblangan foizlar summasiga quyidagicha buxgalteriya yozuvi beriladi.

Debet 9610 "Foiz ko'rinishidagi xarajatlar".....41 838 298 so'm

Kredit 7910 "Uzoq muddatli ijara majburiyatlar".....41 838 298

Asos: 2023-yil uchun ijara majburiyatlarining hisobot davri boshidagi balans qiymatiga nisbatan diskontlash stavkasi 14%dan kelib chiqib hisoblangan foiz summasi

(298 844 988 x 14% / 100 % = 41 838 298 so'm) ni tashkil etadi.

2023-yil uzoq muddatli ijara majburiyatlaridan joriy majburiyatlarga o'tkazilgan qismi.

Debet 7910 "Uzoq muddatli ijara majburiyatlari"120 000 000 so'm

Kredit 6910 "Joriy ijara majburiyatlari"120 000 000

Asos: Uzoq muddatli ijara majburiyatlaridan 2023 yilga oid bo'lgan joriy majburiyatlar hisoblandi (298 844 988 – 220 683 286 +41 838 298 = 120 000 000 so'm)

2023-yil uchun hisobot davrining oxirida o'tkazib berilgan ijara to'lovlari summasiga quyidagicha buxgalteriya yozuvi beriladi.

Debet 6910 "Joriy ijara majburiyatlari" 120 000 000 so'm

Kredit 5110 "Bankdagi hisob-kitob schoti"120 000 000

Asos: 2023-yilning oxirida ijaraga beruvchiga ijara to'lovlari 120 000 000 so'm miqdorida o'tkazib berildi.

2. 2024-yil 31-dekabrida hisoblangan foizlar summasiga quyidagicha buxgalteriya yozuvi beriladi:

Debet 9610 "Foiz ko'rinishidagi xarajatlar"30 895 660 so'm

Kredit 7910 "Uzoq muddatli ijara majburiyatlar"30 895 660

Asos: 2024-yil uchun ijara majburiyatlarining hisobot davri boshidagi balans qiymatiga nisbatan diskontlash stavkasi 14%dan kelib chiqib hisoblangan foiz summasi ($220\,683\,286 \times 14\% / 100\% = 30\,895\,660$ so'm)ni tashkil etadi.

2024-yil uzoq muddatli ijara majburiyatlaridan joriy majburiyatlarga o'tkazilgan qismi.

Debet 7910 "Uzoq muddatli ijara majburiyatlari"120 000 000 so'm

Kredit 6910 "Joriy ijara majburiyatlari"120 000 000

Asos: Uzoq muddatli ijara majburiyatlaridan 2024-yilga oid bo'lgan joriy majburiyatlar hisoblandi ($220\,683\,286 - 131\,578\,946 + 30\,895\,660 = 120\,000\,000$ so'm)

2024-yil uchun hisobot davrining oxirida o'tkazib berilgan ijara to'lovlari summasiga quyidagicha buxgalteriya yozuvi beriladi.

Debet 6910 "Joriy ijara majburiyatlari"120 000 000 so'm

Kredit 5110 "Bankdagi hisob-kitob schoti"120 000 000

Asos: 2024-yilning oxirida ijaraga beruvchiga ijara to'lovlari 120 000 000 so'm miqdorida o'tkazib berildi.

3. 2025-yil 31-dekabrida hisoblangan foizlar summasiga quyidagicha buxgalteriya yozuvi beriladi.

Debet 9610 "Foiz ko'rinishidagi xarajatlar" 18 421 054 so'm

Kredit 7910 "Uzoq muddatli ijara majburiyatlar"18 421 054

Asos: 2025 yil uchun ijara majburiyatlarining hisobot davri boshidagi balans qiymatiga nisbatan diskontlash stavkasi 14%dan kelib chiqib hisoblangan foiz summasi

($131\,578\,946 \times 14\% / 100\% = 18\,421\,054$ so'm) ni tashkil etadi.

2025-yil uzoq muddatli ijara majburiyatlaridan joriy majburiyatlarga o'tkazilgan qismi.

Debet 7910 "Uzoq muddatli ijara majburiyatlari"150 000 000 so'm

Kredit 6910 "Joriy ijara majburiyatlari"150 000 000

Asos: Uzoq muddatli ijara majburiyatlaridan 2025 yilga oid bo'lgan joriy majburiyatlar hisoblandi ($131\,578\,946 + 18\,421\,054 = 150\,000\,000$ so'm)

2025-yil uchun hisobot davrining oxirida o'tkazib berilgan ijara to'lovlari summasiga quyidagicha buxgalteriya yozuvi beriladi.

Debet 6910 "Joriy ijara majburiyatlari"120 000 000 so'm

Kredit 5110 "Bankdagi hisob-kitob schoti"120 000 000

Asos: 2025-yilning oxirida ijaraga beruvchiga ijara to'lovlari 120 000 000 so'm miqdorida o'tkazib berildi.

Agarda to'lovlar yilning boshida amalga oshirilsa u holda hisoblangan ijara majburiyatlarining keltirilgan qiymati quyidagicha hisob-kitob qilinadi (4-jadval).

4-jadval

Ijara majburiyatlarining keltirilgan (privedennaya) qiymatini aniqlash hisob-kitobi (To'lovlar yilning boshida amalga oshiriladi)

Sana	Pul oqimi	Diskontlash stavkasi, %	Ijara majburiyatlarining keltirilgan qiymati
2023-yil 1-yanvar	120 000 000		120 000 000
2024-yil 1-yanvar	120 000 000	$\frac{1}{(1 + 0.14)^1}$	105 263 158
2025-yil 1-yanvar	150 000 000	$\frac{1}{(1 + 0.14)^2}$	115 420 129
Ijara majburiyatlarining keltirilgan qiymati			340 683 287

Agar ijara uchun pul to'lovlari yilning boshida amalga oshirilsa ijara majburiyatlarining balans qiymati hisoblangan foizlar summasiga oshiriladi, to'langan ijara to'lovlari summasiga kamaytiriladi. Buni formula orqali quyidagicha aniqlash mumkin bo'ladi:

$$IMBQ_1 = IMBQ_0 - IT + FS \quad (3)$$

Bu yerda, $IMBQ_1$ – ijara bo'yicha majburiyatlarning oxirgi balans qiymati;

$IMBQ_0$ – ijara majburiyatlarining boshlang'ich balans qiymati;

IT – Ijara to'lovlari;

FS – hisoblangan foizlar summasi.

Hisoblangan foizlar summasi oraliq summaga nisbatan diskontlash stavkalari asosida quyidagicha aniqlanadi. Oraliq summa esa ijara majburiyatlarining boshlang'ich qiymatidan yil boshida amalga oshirilgan ijara to'lovlari chegirib tashlash orqali topiladi.

$$FS = [(IMBQ_0 - IT) \times DS\%] / 100\% \quad (4)$$

Yuqoridagi formulalar asosida foizlar va ijara bo'yicha majburiyatlarning oxirgi balans qiymatini quyidagi 5-jadval ko'rinishidagi shaklga joylashtiramiz. Yuqoridagi amaliy misolimizdagi ma'lumotlar asosida to'lovlar hisobot yilining boshida amalga oshirilishini hisobga olib jadvalni to'ldiramiz.

5-jadval

To'lovlar hisobot yilining boshida amalga oshirilishini hisobga olib foizlar va ijara majburiyatlarining balans qiymatlari hisob-kitobi

Yillar	Ijara majburiyatlarining hisobot davri boshidagi qiymati	To'lovlar	Oraliq jami	Hisoblangan foizlar	Ijara majburiyatlari ning hisobot davri oxiridagi qiymati
2023 yil	340 683 287	120 000 000	220 683 287	30 895 660	251 578 947
2024 yil	251 578 947	120 000 000	131 578 947	18 421 053	150 000 000
2025 yil	150 000 000	150 000 000	-	-	-

16-son MHXSga asosan foydalanish huquqi ko'rinishidagi aktiv boshlang'ich qiymatida baholanadi. Bunda barcha uzoq muddali aktivlarni boshlang'ich qiymatda hisobga olish qoidasi amal qiladi. Unga muvofiq FHKA jamg'arilgan amortizatsiya va qadrsizlanishdan zarar chegirib tashlangandan keyingi boshlang'ich qiymati bo'yicha hisobga olinadi. Buni quyidagi formula orqali ifodalashimiz mumkin bo'ladi.


$$FHKA_1 = FHKA_0 - JA - JQZ \quad (5)$$

$FHKA$ – ijaraning boshlang'ich qiymati;

JA – jamg'arilgan amortizatsiya;

JQZ – jamg'arilgan qadrsizlanishdan zarar.

16-son MHXSlari talablariga muvofiq agar FHKA ijara muddati tugagandan keyin egalik qilish huquqi ijarachiga o'tsa u holda amortizatsiya aktivning xizmat qilish muddati davomida hisoblanadi. Boshqa holatlarda amortizatsiya hisoblash uchun aktivning xizmat qilish muddati yoki ijara muddatidan qaysi biri qisqa bo'lsa ushbu muddat olinadi (2-rasm).



2-rasm. Foydalanish huquqi ko'rinishidagi aktivlarga amortizatsiya hisoblash
(*agarda ijara muddatining oxirida mulk ijarachiga o'tishidan tashqari boshqa holatlarda*)

Ijara bo'yicha majburiyatlar, foydalanish huquqi ko'rinishidagi aktivlar hamda foiz bo'yicha xarajatlar, amortizatsiya xarajatlarini moliyaviy hisobotda aks ettirishga doir uslubiy masalalar bilan tanishib chiqaylik.

"Naturel Zamin" MCHJ bo'yicha foydalanish huquqi ko'rinishidagi aktiv ma'lumotlaridan foydalanamiz.

6-jadval

Foydalanish huquqi ko'rinishidagi aktivning boshlang'ich qimmatini aniqlash bo'yicha hisob-kitoblar

Xalqaro standartlarga muvofiq FHKAning boshlang'ich qiymati elementlari	Summa
1. Ijara bo'yicha majburiyatlarning boshlang'ich bahosi miqdorida	298 844 988
2. Ijara boshidagi sanada yoki shu sanagacha ijara to'lovlari	-
3. Har qanday boshlang'ich to'g'ridan to'g'ri xarajatlar	32 500 000
4. Ijarachi tomonidan ijara shartlariga muvofiq bazovoy aktivni demontaj yoki siljitishiga qilingan xarajatlar	-
Foydalanish huquqi ko'rinishidagi aktivlarning boshlang'ich qiymati (298 844 988 + 32 500 000)	331 344 988

"Naturel Zamin" MCHJ bo'yicha 1-jadvalda keltirilgan foydalanish huquqi ko'rinishidagi aktivning boshlang'ich qiymati 331 344 988 so'mni tashkil etgan. Burg'ulash mashinasining xizmat qilish muddati 10 yil. Ijara muddati uch yil. Ijara 2023-yil 1-yanvardan boshlanib, 2025-yil 31-dekabrda yakunlanadi. Ijara muddati tugagandan keyin burg'ulash mashinasi Naturel Zamin MCHJ egaligiga o'tmaydi. Mashina to'liq xizmat qilish muddati davomida ijaraga olinmaganligi bois likvidatsion (tugatish) qiymati belgilanmagan. Ijara to'lovlari yilning oxirida amalga oshiriladi. Hisob siyosatiga muvofiq, ushbu FHKAg nisbatan amortizatsiya bir tekisda taqsimlash metodi asosida hisoblash ko'zda tutilgan. U holda FHKAning yillik amortizatsiya summasi:

$$FHK_{\text{yas}} = FHK_0 / 3 = 331\,344\,988 / 3 = 110\,448\,329 \text{ so'm}$$

2023-yil FHKAg hisoblangan amortizatsiya summasiga quyidagicha buxgalteriya yozuvi beriladi. Ushbu burg'ulash mashinasi qurilish-montaj ishlarini bajarishda qatnashganligi bois unga hisoblangan amortizatsiya xarajatlari ustama ishlab chiqarish xarajati hisoblanib, tannarxi ob'yektiga ma'lum mezonlar asosida taqsimlanadi.

Debet 2510 "Ustama ishlab chiqarish xarajatlari"..... 110 448 329 so'm

Kredit 0299 "Foydalanish huquqi ko'rinishdagi aktivning eskirishi".....110 448 329

Asos: FHKA ijara muddati 3 yil ijara muddati davomida amortizatsiya bir tekisda taqimlash usulida amalga oshirilgan.

Yillik amortizatsiya summasi $331\,344\,988 / 3 = 110\,448\,329$ so'mni tashkil etgan.

Yuqoridagi jarayonlarni Naturel Zamin MCHJ moliyaviy hisobotida aks ettiramiz.

7-jadval

Naturel Zamin MCHJning moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotidan ko'chirma

Balans moddalari	Sat	2023-yil 31-dekabr	2024-yil 31-dekabr	2025-yil 31-dekabr
Uzoq muddatli aktivlar:				
Foydalanish huquqi ko'rinishidagi aktiv				
31.12.2023 holatida (331 344 988 – 110 448 329)		220 896 659		
31.12.2024 holatida (220 896 659 – 110 448 329)			110 448 330	
31.12.2025 holatida (110 448 330 – 110 448 330)				0
Uzoq muddatli majburiyatlar 31.12.2023 holatida (298 844 988 + 41 838 298-120 000 000)		220 683 286		
Qisqa muddatli majburiyat: 31.12.2023 holatda		120 000 000		
Uzoq muddatli majburiyat: 31.12.2024 yil holatida (220 683 286 + 30 895 660 – 120 000 000)			131 578 946	
Qisqa muddatli majburiyat			150 000 000	
Uzoq muddatli majburiyat: 31.12.2025 yil holatida (131 578 946 + 18 421 054 – 150 000 000)				0
Qisqa muddatli majburiyat				0

Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda amortizatsiya xarajatlari va moliyaviy xarajatlar o'z aksni topadi. Ushbu hisobotda quyidagicha aks ettiriladi (8-jadval)

8-jadval

Naturel Zamin MCHJning foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotidan ko'chirma

Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot moddalari	Satr	2023-yil	2024-yil	2025-yil
2023 yil uchun:				
Amortizatsiya (331 344 988 /3)		110 448 329		
Moliyaviy xarajatlar		41 838 298		
2024 yil uchun:				
Amortizatsiya (331 344 988 /3)			110 448 329	
Moliyaviy xarajatlar			30 895 660	
2025 yil uchun:				
Amortizatsiya (331 344 988 /3)				110 448 329
Moliyaviy xarajatlar				18 421 054

Ushbu jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda FHKAning amortizatsiya summasi va moliyaviy xarajatlar (foiz bo'yicha xarajatlar) aks ettiriladi.

Xulosa va takliflar.

Xalqaro standartlarga muvofiq ijara hisobini takomillashtirishda quyidagilarni hisobga olishni tavsiya etamiz:

Hozirgi xalqaro standartlarni joriy etish sharoitida korxonalarda ijara shartnomalarining nafaqat huquqiy shaklini, balki iqtisodiy ahamiyatini xalqaro standartlar asosida tan olinishini joriy etish;

Ijaraga oluvchi foydalanish huquqi ko'rinishidagi aktivlar va ularning boshlang'ich qiymatini aniqlash, xalqaro standart talablari asosida tan olinishini joriy etish;

Ijara bilan bog'liq majburiyatlar hamda ijara bo'yicha majburiyatlarning boshlang'ich bahosini, ijara bo'yicha majburiyatlarning oxirgi balans qiymati hamda hisoblanadigan foizlarni xalqaro standart talablari asosida aniqlanishini amalda qo'llash;

Shunday qilib, ijara hisobini xalqaro talablarga asosan yuritilishi va hisobotda to'g'ri aks ettirilishi axborot foydalanuvchilar uchun hisobotning foydaliligini oshirishga hamda oqilona qarorlar qilinishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/ Лумепамыпа / Reference:

BHMS (2022). Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti 16-son "Ijara"

Buxgalteriya hisobi milliy standarti (2004) 6-son "Ijara hisobi"

Abdusalomova N.B, Temirov F.T. (2021). Moliyaviy hisob. O'quv qo'llanma. –T.: IQTISODIYOT. – 283 b.

Urazov K.B., Po'latov M.E. (2020). Buxgalteriyahisobi. Darslik. T.: "Innovatsionrivojlanishnashriyotmatbaauyi", 558 b.

Ташназаров (2023). Молиявий бухгалтерия ҳисоби 1 дарслик / Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти – Самарқанд.: "STEP-SEL" МЧЖ нашриёти, - 438 бет.

Ташназаров ва бошқалар (2024). Молиявий бухгалтерия ҳисоби 2. [Матн]: дарслик/СамИСИ –Самарқанд.: "STEP – SEL" МЧЖ нашриёти, -780 бет.

Эргашева Ш.Т. (2020), Учебник «Международные стандарты финансового отчета» –Т.: ТГЭУ.

Yusupova M.B., Satvaldiyeva G.V. (2025) "Ijara bo'yicha xalqaro standart qo'llanilishining xususiyatli jihatlari" // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, mart, № 3-son, 725-729 betlar. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>.

Alekseyeva G.I. (2017). "Учет договора аренды в соответствии с Международными стандартами финансовой отчетности: текущее состояние и перспективы для российских организаций" // Учет. Анализ. Аудит. №2, 78-86 стр.